



NUTQIY AKT TUSHUNCHASINING NAZARIY TADQIQI

Yaxyoyeva Umida Ibrohim qizi

*Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası, 1-bosqich
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lingvistik pragmatikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan nutqiy akt nazariyasi bilan bog'liq bir qancha olimlarning nazariy qarashlari har tomonlama o'rganildi. Nutqiy akt nazariyasining vujudga kelishi, taraqqiyoti, nazariy tadqiqi bilan bog'liq masalalar tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *lingvistik pragmatika, nutqiy akt, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, propozitsional akt.*

O'z metodologik maqomiga ko'ra antroposentrik nazariyaning alohida sohasiga aylangan nutqiy aktlar nazariyasi tilga falsafiy qarash asosida shakllangan hodisa bo'lib, uning asosiy mohiyati nutq hodisalari bilan bog'liq. Nutqiy aktlar nazariyasi masalalari mohiyatan tilshunoslikning nisbatan yangi "psixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, kommunikativ sintaksis, ritorika, semiotika" kabi qator sohalari markazida turadi. Nutqni tadqiq etishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri lingvistik pragmatika bo'lib, u nutq faoliyatini til birliklaridan foydalanish va so'zlovchilarning maqsadlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash nuqtayi nazaridan o'rganadi. Bundan ko'rinadiki, insonlar o'rtasidagi nutqiy munosabatni ifoda etuvchi nutqiy etiket ko'rinishlari lingvopragmatika o'rganish obyekti bo'lib, uning XX asr ikkinchi yarmidagi rivoji shu davrda shakllangan nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta'limot sifatida shakllanishi bilan bog'liq. Nutqiy akt tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishida amerikalik olim, pragmatika asoschisi Ch.S.Pirsning tilga mantiqiy-falsafiy kategoriya deb qarashi asos bo'lgan. Nutqiy akt – muayyan jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakati sanaladi¹. Ko'rinadiki, nutqiy akt - lingvistik xulq-atvor qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakat bo'lib, so'zlovchi (adresant), tinglovchi (adresat) va nutqiy vaziyat kabi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Biror kishining so'z yordamida muloqot qilishi, yoki kimdir biror narsa qilish niyatida ekanligini nutq orqali ifodalashi nutqiy akti keltirib chiqaradi. Nutqiy akt muammolari va. nutqni shakllantirish vositalari dastlab tilshunoslikda V.

¹ Лингвистический энциклопедический словарь.- М.:Сов, энциклопедия, 1990.



Gumboldt, S. Balls, S. Kartsevskiy, L. P. Yakubinskiy, K. L. Bulsra, E. Benveniste, M. M. Baxtin va boshqalarning konsepsiyalarida uchraydi. Nutqiy aktning dastlabki rivojlangan nazariyasi L.Vitgenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan. U nutq turli maqsadlarni ifodalashini va nutq o'z egasidan ajralmagan holda tahlil qilinishi kerakligi g'oyasini ilgari surib, uni "til o'yinlari" misolida tushuntiradi. Lingvistik falsafa maktabi vakillari J.Ostin va J.R.Searl ushbu ta'limot poydevorini yaratgan L.Vitgenshteyn, Ch.S.Pirs va uning semiotika sohasidagi eng mashhur izdoshi C.Morris g'oyalarini rivojlantirib pragmatik funksiyalar nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularning tadqiqotlari asosida tilni harakat sifatida tushunish yotadi. Nutq akti uzoq vaqt davomida pragmatik tahlil birligi hisoblanib, bu nazariyaning o'rganish ob'ekti nutq akti, ya'ni ma'lum bir muloqot sharoitida tinglovchiga murojaat qilgan so'zlovchining nutqi, nutqda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakatidir. Ingliz faylasufi J.Ostin va amerikalik olimlar J.Searl va G.Gris ushbu nazariyaning asoslarini ishlab chiqdilar. Ular birinchi marta fikrni aytish nafaqat ma'lumot uzatish, balki boshqa ko'plab harakatlar (tabriklash, ishontirish, ogohlantirish va boshqalar) bo'lishi mumkinligini ta'kidladilar. Va nihoyat, 1950-yillarning o'rtalarida J.Ostin nutqiy aktlarni nisbatan mukammal mezonlarini ishlab chiqdi. Unga ko'ra aloqa birligi gap yoki matn faqatgina xabar emas, balki savol, tushuntirish, ogohlantirish, tavsif, minnatdorchilik, pushaymonlik kabi nutqiy harakatlarni bajaradi. J.Ostin nutq akti bilan bog'liq fikrlarini " Слово как действие " asarida keltiradi². XX asr boshlarida nutqning shakllanishi - aloqa jarayonida til birliklarining o'rni bilan bog'liq masalalar, asosan, ma'lumotni saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan potensial belgilar tizimi sifatida til bilan taqqoslash orqali o'rganildi. Nutq- inson faoliyatining turli sohalarida ma'lum bir kommunikativ va stilistik yo'nalishga ega bo'lgan sof individual so'z yaratish sifatida qaraldi. Masalan, deb nomlayman, kechirim so'rayman, sizni tabriklayman, buni qilishni maslahat beraman kabi birikmalar hech qanday bayonotni o'z ichiga olmaydi, faqat ma'lum bir harakatning bajarilishini yoki ushbu harakatni amalga oshirish uchun va'da, uzr yoki maslahatni bildiradi. Ostinning ta'kidlashicha, ingliz tilida tasdiqlash, tavsiflash, ogohlantirish, eslatish, sharhlash, buyruq berish, so'rash, tanqid qilish, kechirim so'rash, ma'qullash, salomlashish, va'da berish, afsuslanish kabi harakatni bildiruvchi fe'llarning mingdan ortiq turi mavjud. J. Ostinning nutqiy akt nazariyasiga qo'shgan xizmati shundaki, u nutqqa ma'lum fonetik, semantik va sintaktik qoidalarga muvofiq qurilgan va atrofdagi voqelikdagi vaziyatni aks ettiruvchi umume'tirof etilgan

² Дж Остин. Слово как действие// НЗЛ. Вып .XVII.-М.,1986.



belgilar birikmasi sifatida emas, balki shaxsning mahsuli sifatida qaragan. U soʻzning yaratilishi, soʻzlovchining shaxsiy fazilatlari tufayli yuzaga kelishini, yaʼni uni ishlab chiqaruvchi boʻlmish nutq subʼektiga bevosita bogʻliq ekanligi gʻoyasini ilgari suradi. J.Ostin nutq joʻnatuvchisi va qabul qiluvchisi shaxslari ham bunda asosiy rol oʻynashini va maqsad faktik maʼlumotlarni uzatish emas, balki uni talqin qilishga qaratilishini taʼkidlaydi. J.Ostin jumla faqat narsalarning holatini “taʼriflashi” yoki “biror fakt haqida nimanidir bayon qilishi” emas, balki insonlar ishlatadigan iboralar butunlay boshqacha maqsadda qoʻllanishini izohlaydi. U: “Biz buyruq berishimiz, kechirim soʻrashimiz, vaʼdalar berishimiz, taxminlar qilishimiz, kimnidir ogohlantirishimiz, ayblashimiz, salomlashishimiz – bir soʻz bilan aytganda, til yordamida turli harakatlarni bajarishimiz mumkin-deydi”³. Ilgari, til faqat voqelikni tasvirlash uchun xizmat qiladi, nutq esa voqelikka faqat bilvosita taʼsir qilishi mumkin deb qaralgan. Ostin nazariyasi asosida til faqat voqelikni tasvirlabgina qolmay, balki harakatni ham bajarishi yotadi va maqsadlilik va shartlilik nutq aktining asosiy xususiyatlari deb qaraldi. Jon Ostin Solonning mashhur qadimiy “Soʻz - bu oʻziga xos ishdir” iborasiga tayangan holda quyidagi fikrlarini bildiradi: “Maʼlum bir gaplarning maʼlum bir sharoitda aytilishi qandaydir harakat, ishning bajarilishi bilan barobardir”-deydi va nutq aktining uchta komponentga boʻladi: lokutiv, illokutiv, perllokutiv.

Lokutiv – bu aslida gapirish, bayonotni talaffuz qilish harakati;

Illokutiv – bu adresatga taʼsir qilish maqsadida aytilgan bayonot; bu bosqichda soʻzlovchining kommunikativ niyati amalga oshadi;

Perllokutiv – bu nutq harakatini bajarish natijasida erishilgan taʼsir, yaʼni nutqning yagona darajalaridan biri boʻlib, uning bajarilishi adresatga bogʻliq.⁴

Ayrim ilmiy adabiyotlarda nutqiy aktlar strukturasi toʻrtga boʻlinadi: soʻzlash yoki tallaffuz akti – lokutiv, gap orqali ifodalangan asosiy axborot – propozitsiya yoki propozitsional akt, soʻzlovchining kommunikativ niyati yoki maqsadi – illokutiv akt, gap yoki ifoda orqali tinglovchiga nutqiy taʼsir etish – perllokutiv akt hisoblanadi⁵.

Nutq aktining tuzilishi haqida biroz boshqacha fikrlar J. Serlda uchraydi.

U nutq aktida toʻrtinchi propozitsional akti ilmiy muomalaga kiritadi⁶. Serl nutq aktlarini 12 parametrini ajratib koʻrsatdi va ularning tasnifini ishlab chiqdi. U nutq aktini tartibga soluvchi qoidalarni aniqlashga va muloqot jarayonida niyatni

³ Oʻsha asar, 83-91-betlar

⁴ Oʻsha asar, 93-95betlar

⁵ Дорошенко А.В. Побудительные речевые акты в косвенных контекстах.// В кн.: Логический анализ языка. -М.,1989.с.77.

⁶ Серль Дж. Р. Что такое речевой акт? / Дж. Р. Серль// Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского, Б.Ю.Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.210-228.



so'zlovchidan tinglovchiga o'tkazish mexanizmlarini tavsiflashga harakat qildi. Searl tilning asosiy maqsadi voqelik obyektlarini tasvirlashda emas, balki maqsadli harakatlarni amalga oshirishda deb hisoblagan. Shuning uchun ham "Ma'no nima?" degan savolga javob izladi va so'nggida gap yoki ifoda harakatni amalga oshiradi degan xulosaga keladi. Bu lingvistik hodisalarni tahlil qilishda funksional yondashuvda muhim qadam bo'ldi va tilshunoslar uchun bayonotlarni haqiqat va yolg'on nuqtayi nazaridan emas, balki niyat va kelishuvlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishga imkon berdi. J.Serl Ostinning illokutiv aktlar bo'yicha fikrlarini o'rganib chiqadi va bu tasnif o'z nihoyasiga yetkazilmagan degan fikrni aytadi. J.Ostin va Serlning fikrlariga tayanib, J. Lich odoblilik prinsipi nuqtayi nazaridan nutq harakatlarining tasnifini ishlab chiqadi. Mezon sifatida u nutqiy harakatning odob-axloq darajasini ajratib ko'rsatadi⁷.

Ko'pgina olimlar nutq harakatlari borasidagi mavjud tasniflarni mavhumligi, real ijtimoiy sharoitlardan ajratilganligi va ko'plab parametrlar e'tiborga olinmaganligi sababli tanqid qildilar. Shunday qilib, nutq aktlari nazariyasida nutqning o'zaro ta'sir jarayonlarini tahlil qilishda yuzaga keladigan ko'plab qiyinchiliklarni qayd etib, bir qator tadqiqotchilar bu nazariyani nafaqat o'zgartirishni, balki tubdan qayta qurishni ham ta'kidlaydilar. T.A. Van Deyk, J. Lich, S. Levinson, J. Mey, I. A. Bezmenova, V. I. Gerasimov kabi olimlar shular jumlasidandir. Shu kabi olimlardan biri D.Frank nutqiy harakatlar nazariyasi og'zaki muloqotning pragmatik nazariyasini qurish uchun asosiy konseptual apparat sifatida nima uchun yetarli emasligini izohlaydi⁸. Shunga qaramay, nutq aktini pragmatika sohasidagi dolzarb muammo sifatida tahlil qilish davom etadi. I.A. Bezmenov va V.I. Gerasimov nutq harakatlarining mavjud nazariyasi asosida salomlashishning rituallashtirilgan shakllarini o'rganadilar⁹. T.A. Van Deyk birinchilardan bo'lib nutq aktlarining bog'lanishini tavsiflashga urinib ko'rdi. U nutq aloqadorligi muloqotni amalga oshirishdagi zarur sharti ekanligini qayd etadi va oldingi nutq harakatlarining natijalari keyingilari uchun muhim shart-sharoitlarni yaratishi kerakligini ta'kidlaydi¹⁰. U muloqot jarayonidagi nutqiy aktlar o'zaro bir-biriga bog'liq ekanligi sababini kommunikatsiya – nutqiy

⁷ Leech G.H. Principles of Pragmatics / Leech G.H. – NY, London: Longman, 1983. – 250 p.

⁸ Франк Д. Семь грехов прагматики: тезисы о теории речевых актов, анализе речевого общения, лингвистике и риторике/ Д. Франк// Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского, Б.Ю.Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.254-264

⁹ Безменова И.А. Некоторые проблемы теории речевых актов/ И.А. Безменова, В.И. Герасимов// Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики: Сб. обзоров. Сер. Теория и история языкознания/ Отв. ред. В.И. Герасимов. – М., 1984. – С. 146-222.

¹⁰ Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse / Dijk T.A. van. – The Hague etc.: Mouton, 1981. – XII, 331p.



birliklar asosida shakllanishi va bunday aloqador propozitsiyalar va illokutsiyalar voqelanishining muhim talabini tashkil etishida deb biladi hamda nutqiy aktlar ketma-ketligida illokutiv mazmun asosiy o'rindaligini izohlaydi. Tyon Van Deyk bu hodisani "makro nutqiy akti" deb nomlaydi¹¹. Nutq akti tushunchasini tanqid qilgan tilshunoslardan yana biri J. Meyning fikricha, nutq aktlarining klassik nazariyasi faqatgina nutq aktlari turlarini aniqlashga, shuningdek, «qoidalar»ni o'rnatishga qaratilgan. U: "Nutq akti tushunchasi faqat nutq odobida mustahkamlangan aloqaning barqaror "formulalari"ni nazarda tutadi, ammo barcha nutqiy harakatlar stereotiplarga mos kelmaydi. Shaxslararo o'zaro ta'sirlar dinamikasida shunday kommunikativ maqsadlar mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish uchun ma'lum tasniflarda aniq nutq aktini topish mumkin emas"-deydi ¹².Nutq akti nazariyasida nutqiy harakatlar tildan foydalanuvchilarning belgiga va belgi orqali atrofdagilarga munosabatini ifodalovchi implisit birliklar sifatida yuzaga chiqishini Gris o'rgangan. Grisning fikriga ko'ra, bayonotning yashirin shakli, ba'zi sabablarga ko'ra, aniq ifodalash mumkin bo'lmagan narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Yashirin mazmundagi bayonotlarni idrok etish qiyin, chunki yashirin komponent tinglovchi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanishi kerak.

Gris implikaturalarni ajratib ko'rsatar ekan, ularni an'anaviy implikaturalar va nutq implikaturalariga ajratadi. An'anaviy implikaturalar nutq formulalari bo'lib, ular ma'lum bir niyatning aniq ifodasi bo'lmagan holda uchraydi. Nutq implikaturalarida esa so'zlovchi o'z fikrlarini bilvosita ifodalab, tinglovchiga o'zi bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Ba'zan shunday dialog natijasidagina tinglovchi so'zlovchi nimani nazarda tutganini to'liq anglashi mumkin Bayonotning yashirin mazmunini izlashda har bir tinglovchi ushbu dialogni o'ziga xos tarzda tushunadi. Grisning implikasiya haqidagi fikrlarini J.Mey rivojlantiradi. U : "Bayonotning bilvositalik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'sir kuchi shunchalik samarali bo'ladi"-deydi.U fikrlariga isbot sifatida reklamalarni keltiradi va "Reklamalarda ishontirish texnikasi, asosan, "aytilayotgan gapga emas, aytilmagan narsaga" asoslanishini"- aytadi¹³.Bu sohada izlanish o'tkazgan olimlardan yana biri K.Byuler bo'lib, u nutqiy akti uch tarkibli (uzatuvchi, qabul qiluvchi, vaziyat) deb hisoblab, ularni tilning uchta asosiy vazifasi (ifoda, murojaat va referentsiya) bilan bog'laydi¹⁴. R. Yakobson ushbu uchta tarkibiy

¹¹ Teun Van Dijk, Aims of Critical Discourse Analysis,17-27b 1995.

¹² Mey J.L. Pragmatics. An Introduction / Mey J.L.– USA, UK: Blackwell Publishers, 2001, 2 nded. –500 p.

¹³ Mey J.L. Pragmatics. An Introduction / Mey J.L.– USA, UK: Blackwell Publishers, 2001, 2 nded. –500 p.

¹⁴ Byuler K. Teoriya yazika. Rerezentativnaya funktsiya yazika.-M.:Progress,1993.-b.34; Arzikulov X. Речевая система и её модели (на материале французского языка): дис . докт. филол. наук / X. Арзикулов. Самарканд, 1994. -294 б.



qismni “adresat”, “adresant” va “kontekst” ga almashtirdi hamda ular qatoriga “aloqa”, “kod”, “xabarni” qo‘shib, til bajaradigan vazifalar – fatik (aloqa o‘rnatish), poetik va metatil kabilardan iborat bo‘lishi mumkinligini qayd etdi.

J.Ostin va Serlning nutqiy akt nazariyasiga asoslanib, keyingi yillarda ko‘pgina tadqiqotlar yaratildi va ushbu tadqiqotlar tilshunoslik uchun muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arso Setyaji. How speech acts work in translation: an analysis on speech acts in translating a script of Titanic film //UNS Journal of language studies – 2014. – Vol. 03. – №.01. – P.18.
2. Buzrukova M. O'zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari //Xorijiy filologiya – 2020. – №1. – B.108
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.77-82.
4. Searle J.R. A classification of illocutionary acts //Language in society – 1976. – Vol. 5 – №1. – P.1.
5. Choerunnisa R. An analysis of speech acts in the dead poets society: a thesis. – University of Yogyakarta, 2015.